

RANG BILDIRUVCHI LEKSEMALAR BILAN IFODALANGAN SINESTEZIK METAFORALARNING KOGNITIV TA'SIRI

Oripova Mavluda Baxriddinova,
ToshDO'TAU 3-bosqich doktoranti
mavludaoripova85@gmail.com

Annotatsiya. Ma'lumki, metafora inson tafakkurining asosiy kognitiv vositalaridan biri hisoblanadi. Metaforaning til va tafakkur mahsuliligi, tushunish mexanizmlari nuqtayi nazardan qaralganda, uning kognitiv tahliliga kuchli qiziqish uyg'otadi.

Biz rang bilan bog'liq ushbu maqolada semantik o'zgarishlarni "**kognitiv ta'sirlar**" deb ataymiz, ya'ni rang bilan ifodalangan sinestezik metaforalarda vosita va mavzu o'rtasidagi semantik aloqalar so'z ma'nosini abstraktlashtirgan holda ijobiy yoki salbiy qutbga siljitadi.

Kalit so'zlar: sinestezik metaforalar, kognitiv faoliyat, ma'no taraqqiyoti, ranglar ta'siri.

Аннотация. Известно, что метафора является одним из основных когнитивных инструментов человеческого мышления. С точки зрения продуктивности языка и мышления, а также механизмов понимания, метафора вызывает большой интерес для её когнитивного анализа.

В данной статье, посвященной цвету. Мы называем семантические изменения когнитивными эффектами, то есть в синестетический метафорах выраженных через цвет, семантические связи между средством и темой сдвигают значение слова в абстрагированном виде к положительному или отрицательному полюсу.

Ключевые слова: синестетическая метафора, когнитивная деятельность, развитие значение, влияние цвета.

Abstract. It is known that metaphor is one of the main cognitive tools of human thinking. When the product of language and thought represented by metaphor is considered from the perspective of mechanism s of understanding, it arouses strong interest in its cognitive analysis.

In this article related to color, we refer to semantic changes as "cognitive effects", hat is, in synesthetic metaphors expressed throught color, the semantic relations between the vehicle and topic shift the meaning of the word toward a positive or negative pole by abstracting it.

Keywords: synesthetic metaphors, cognitive activity, semantic development, the effect of colors.

Kirish. Kognitiv tilshunoslik kognitiv mexanizm sifatida inson tafakkuri va tajribasini strukturaviy tartibga soluvchi metaforaga ishora beradi. Shu bois metaforaga til va nutqda o'zining yorqin ifodasini topuvchi, ilmiy bilishni belgilovchi unsur sifatida qaraladi.

Inson tafakkur mahsuli bo'lgan metafora manbaa va nishon konseptlari o'rtasidagi o'zaro munosabat orqali yangi ma'no topish jarayoni hisoblanadi. Biz rang bilan bog'liq ushbu ishda mazkur semantik o'zgarishlarni "**kognitiv ta'sirlar**" deb ataymiz, ya'ni rang bilan ifodalangan sinestezik metaforalarda vosita va mavzu o'rtasidagi semantik aloqalar so'z ma'nosini abstraktlashtirgan holda ijobiy yoki salbiy qutbga siljitadi.

Metafora xulosalash, ilmning farazlarini ilgari surishning o'ziga xos modeli hisoblanib, metaforaning yuzaga kelishi til sohiblarining faqat tilda verballashadigan konseptual tizimi, ularning olam to'g'risidagi standart tasavvurlari va ularni o'ziga xos ijobiy yoki salbiy baholash tizimi bilan bog'liq.

Adabiyotlar tahlili. Til tizimida mavjud birliklarning yagona toifaga mansub

emasligi ijtimoiy differensiallangan guruhlarning farqli belgisiga va sotsial faktor talabiga ko'ra til birliklarining tanlanishini taqazo qiladi. Lisoniy va kommunikatsion vaziyatning keskin o'zgarishi, axborot uzatish va uni qayta ishlanishi, saqlanishining yangi usul va shakllari nutqiy vaziyatda kommunikantlar uchun mos ifoda vositalarini saralab qo'llash imkonini beradi.

Metaforani kognitiv jihatdan tadqiq qilgan J.Lakoff va M.Jonsonlar o'zlarining ilmiy qarashlarida metafora nafaqat inson nutqiy faoliyatining, balki fikrlash tarzining deyarli asosini tashkil etishini ta'kidlaydi va metaforani sof lingvistik hodisa emas, olamni konseptuallashtirish omili va tafakkur dalili deb hisoblashadi. "Insonning tajriba to'plashi uchun metaforani ishga solishi – inson tafakkurining muhim g'alabasidir".

Hatto, ratsional tafakkur ham ma'lum darajada metaforik modellarga tayanadi. Demak, shuni aytish mumkinki, metafora – ikki narsa o'rtasidagi analogiyani hosil qilishning chuqur kirib boruvchi yashirin jarayoni. U shunday bir strategiyaki, u yordamida tanish vaziyat yoki tushunib yetilgan mohiyat boshqa notanish vaziyatning ustiga uni oson tushunish maqsadida yuklanadi. Bu anglash qiyin bo'lgan holatlarni aniq anglash usulidir. Ayniqsa, mazkur holat biz tadqiq qilayotgan rang orqali ifodalangan sinestezik metaforalarda yorqin anglashiladi, ya'ni vaziyatlararo assotsiatsiyalanuvchi tushunchalar butun bir kompleks orqali ko'chadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot metodologiyasi sifatida mazkur ishda kognitiv lingvistika yondashuvi asos qilib olinib, rang bildiruvchi leksemalar bilan ifodalangan sinestezik metaforalar semantik va konseptual tahlil usullari orqali o'rganildi. Tadqiqot jarayonida badiiy matnlardan tanlab olingan misollar komponent tahlil, kontekstual va interpretativ tahlil metodlari asosida ko'rib chiqildi. Shuningdek, metaforalarning kognitiv ta'siri ularning ijobiy va salbiy konnotativ xususiyatlarini aniqlash orqali tizimli ravishda tavsiflandi.

Tahlillar va natijalar. Bizga ma'lumki, rang inson ruhiyatiga kuchli ta'sir etuvchi vosita bo'lib, u insonda quvonch va ma'yuslik, tetiklik yoki g'amginlik, xotirjamlik yoki bezovtalik tuyg'ularini uyg'ota oladi. Ijodkor uchun rangning ana shu kuchi muhim omil bo'lib, asarning g'oyaviy yechimida muhim rol o'ynaydi. Xuddi shu holat ko'chma ma'nodagi abstrakt tushunchalarning shakllanishida ham asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Badiiy nutqda rang bildiruvchi sifatlashlar ko'plab qo'llaniladi. Har bir rang o'zida ma'lum mantiqiy kognitatsiya kodini tashiydi. Ranglarning ma'no ifodalovchi, informatsion, estetik, badiiy funksiyalari mavjud bo'lib, ma'lum shartlilikka asoslangan holda ularning butun bir millat madaniyati, ma'naviyati, urf-odat va diniy e'tiqod simvolikasidan o'rin olishi ma'lum.

Ranglar simvolikasi ko'rish sezgisiga asoslangan tasavvur va taassurotlar rang-barangligini o'z ichiga oladi. Ijodkor munosabatini ifodalash, badiiy obrazni xarakterlash, fikrga ikkinchi – yashirin ma'no berish kabi xususiyatlar rang bildiruvchi birliklar uchun

xosdir. Olam va odam manzarasi uning aniq kognitatsion tasvirini yoritishda ham ranglardan foydalanishni, foydalanganda ham g'oyaviy maqsad yo'lida ramziy jihatdan foydalanishni taqazo qiladi.

Rang bildiruvchi leksemalar sinestezik metaforalarda inson sezgilari va hissiyotlarini kuchli emotsional ifodalavchi vositalar hisoblanadi. Bu leksemalar inson ongida kuchli kognitiv assotsiatsiyalar uyg'otadi. Ular nafaqat ko'rish orqali idrok qilinadi, balki eshitish, ta'm, hid, hatto hissiy-ruhiy holatlarga ham ko'chiriladi.

Rang leksemalari bilan ifodalangan sinestezik metaforalarning kognitiv asoslari quyidagilardan iborat:

Oq rang bilan bog'liq sinestezik metaforalar juda boy ma'noli qatlamga egaligi bilan o'ziga xos. Odatda, bu rang kognitatsiyasida poklik, sokinlik, yengillik, nur, sog'inch, xotira, ba'zan esa bo'shliq, muzdeklik yoki o'lim kabi salbiy ma'nolarga ham ega bo'ladi. Sinestezik metaforalarda bu rang boshqa sezgi (eshitish, hid, ta'm bilish, tuyg'u) bilan uyg'unlikda qo'llaniladi.

Ijobiy konnotatsiyaga ega bo'lgan oq rangli sinestezik metaforalar:

Targ'illanib bormoqda osmon

Oppoq hidga to'lmoqda bag'rim. (R. Parfi)

“Oppoq hid” – hid (hid bilish sezgisi) + yashil (rang – ko'rish sezgisi)

Bu kombinatsiya orqali “hid ko'z bilan ko'rilyotgandek” obraz hosil qiladi. Bu esa hidni rang bilan ifodalash orqali yanada aniqroq, hissiyroq tasvirlash imkonini beradi. Bunday sinestezik metaforalar ongda hidni aniqroq “ko'rish”ga o'xshash kognitiv konstruktsiya hosil qiladi. Bu esa tasvirni yanada kuchaytiradi. Mazkur metafora semantikasida sof, be'gubor, ezgu, go'zal, *ijobiy* bo'yoqdorlikka boy bo'lgan ma'no mavjud bo'lib, bu vizual tarzda ifodalanishi bilan bir qatorda sifatning orttirma darajasida qo'llanishi bunday tuyg'ular yana ham aniq, yorqin namoyon bo'lishini asoslaydi.

Ochgil ko'zlarini. Nash'a soch. Borliq

Oq erklik ichradir. Har narsa oq. Oq. (R.Parfi)

“Oq erklik” – yuqoridagi misralarda qo'llangan ushbu metafora borliqning asl mohiyatini, muallif orzusidagi pokiza erkinlik, ruhiy uyg'onish bilan anglanadigan ilohiy haqiqat sifatida gavdalanadi. Oq rang va erklik tushunchasi o'zaro semantik aloqasi natijasida yuqori saviyadagi kognitiv metafora yuzaga kelgan. Misra oxirida “oq” leksemasining yakka holda kelishi – semantik kuchaytirish, emotsional zarba, tasavvurda oq rangning cheksiz hukimronligini bildiradi.

Oq rang bilan ifodalavchi sinestezik metaforalar *oppoq tuyg'ular, oppoq orzular, oppoq xotiralar, oq niyat, oq fotiha, oq yo'l* – bular pokiza, tiniq, beg'ubor, quvonch kabi *ijobiy* konnotatsiyaga ega bo'lgan birikmalar hisoblanadi. Demak, boshqa ranglarga qaraganda “oq” rang madaniy tafakkurda ko'proq *ijobiy* semantik maydonga ega.

Salbiy konnotatsiyaga ega bo'lgan oq rangli sinestezik metaforalar:

Garchi *oq* leksemasi semantik tarkibidagi semalar barchasi ijobiy harakterga ega bo'lsa-da, lekin xalq orasida aynan bu leksema bilan ifodalangan salbiy holatlarni ifodalovchi metaforalar ham mavjud. Masalan, *oq ajal*, *oq qon* (kasallik)

“*Oq ajal*” – (**abstrakt holat**) + *oq* (*rang* – **ko‘rish sezgisi**).

Ushbu sinestezik metafora ikki asosiy semantik maydonning (*rang* va *o‘lim*) o‘zaro to‘qnashuvi orqali hosil bo‘lgan. Assotsiatsion tafakkurda, odatda, “*oq*” *rang* poklik, begunohlik, soflik, tinchlik kabi ijobiy tushunchalar bilan bog‘landi, “*ajal*” esa, tabiiyki, salbiy, qayg‘uli holatdir. Ushbu ifoda antogonistik ma‘nolarni birlashtirganligi sababli kuchli psixologik va kognitiv ta‘sir kuchiga ega. Ushbu metafora quyidagi xususiyatlarni o‘zida mujassamlashtiradi.

1) *sinestezik xususiyat* – ushbu ifoda vizual sezgi (*oq rang*) bilan ekzistensial holat (*ajal*) orasidagi ko‘chma bog‘liqlik orqali hosil bo‘lgan. Bu metafora *rang* orqali *o‘lim* hodisasining xarakterini ifodalaydi.

2) *estetik va emotsional yuklama*:

sodda tahlil: *ajalning* “*oq*” bo‘lishi uni tinch, ehtimol og‘riqsiz, hatto qabul qilinadigan holat sifatida tasvirlanishi;

falsafiy talqini: *oq ajal* o‘limning hayotiy davr oxiridagi tugallanishi, ruhning tanadan ozod bo‘lishi, poklanish nuqtasi sifatida ham tushunish mumkin.

3) *madaniy asoslar*:

- sharq xalqlarida, xususan, o‘zbek madaniyatida (ayrim hududlarda) *oq* rangga ba‘zan motam rangi sifatida qaraladi va *oq* libos kiyiladi;

- bu kontekstda “*oq ajal*” – ko‘ngildagi og‘ir, lekin muqaddas hodisa yoki ayriliqning sokin shakli sifatida ifodalanadi.

4) *she‘riyatda qo‘llanilishi* – bunday poetik birlik she‘riyatda ko‘plab uchraydi, ayniqsa sokin o‘lim, taqdirga bo‘ysunish yoki mangu tinchlik timsoli sifatida.

Yelkamda oq ajal nafasi bor,

Uning sukunati menga begona emas. (R.Parfi)

Bu yerda *oq ajal* o‘limning qo‘rqinchli emas, balki muallifga avvaldan yaqin, tanish holatligi ifoda etilgan.

Demak, *oq ajal* – bu paradoksal sinestezik metafora bo‘lib, u o‘limni vizual va hissiy tasavvur orqali anglanishi. U o‘zida poklik va yo‘qotish, tinchlik va yakun, beguvohlik va fano o‘rtasidagi kuchli hissiy ziddiyatni mujassam etadi. Aynan shu ziddiyat uni kuchli poetik vositaga aylantiradi.

Xulosa. Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, *rang* va u bilan bog‘liq birliklar ustida olib borgan tadqiqotlarimiz, ulardan anglashilgan kuzatishlarimiz shuni ko‘rsatadiki, *rang* bildiruvchi leksemalar bilan idroklangan sinestezik metaforalarning kognitiv ta‘siri o‘ziga xos bo‘lib, *rang* bilan ifoda etiladigan sinestezik metaforalar *ijobiy* ta‘sirdan ko‘ra ko‘proq *salbiy* ta‘sirga ega bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Lakoff, George. Metaphors we live by. Originally published: Chicago: University of Chicago Press, 1980
2. Арютунова Н.Д. Язык и мир человека. – 2-е изд., испр. – М.: Языки Русской культуры, 1999.
3. Телия В.Н. Метафора в языке и тексте. – М.: Наука, 1988.
4. Маслова В.А. Лингвокультурология: Учеб. пособие для студ. высш. учеб. зав. – М.: Академия, 2001.
5. Ўринбоев Б., Қўнғуров Р., Лапасов Ж. Бадиий текстнинг лингвистик таҳлили. – Тошкент: Ўқитувчи, 1990.

